

TEST - SINOV, TEKSHIRISH, TADQIQOT**Mohinur Pardayeva Sobirjon qizi**

Nizomiy nomidagi TDPU Tarix fakulteti

“Maktab menejmenti” yo‘nalishining 3-bosqich talabasi

@Moonlight7Education

+998906671012

Annotatsiya: Pedagog olimlar I.Tursunov va U.Nishonaliyevlarning ma'lumotlariga qaraganda testlar orqali quyidagi imkoniyatlar yaratiladi: ta'lim oluvchilar nazariy va amaliy bilimlarining darajasini obyektiv sharoitda aniqlash, bir vaqtning o'zida bir guruh yoki ko'p sonli ta'lim oluvchilar bilimini nazorat qilish, hamma ta'lim oluvchilarga nazorat topshirish uchun bir xil sharoit yaratish, test natijalarini ta'lim beruvchi tomonidan tezkorlik bilan (operativ) tekshirish, turli guruhdagi ta'lim oluvchilar bilimini o'zaro solishtirish, ta'lim jarayonida uchraydigan kamchiliklarni aniqlash, ularga kerakli chora ko'rish va boshqa bir qator jihatlarni qamrab oladi.

Kalit so'zlar: test tarixi, nazorat reytingi, test, tekshirish, tadqiqot, testning turlari va afzalliklari, testing fanlararo bog'liqliklari, testing maqsadi, vaqt omili, natija samaradorligi.

Test (inglizcha - sinov) - birinchi marta 1864-yilda Buyuk Britaniyada J.Fisher tomonidan talabalarning bilim darajasini tekshirish uchun qo'llanilgan nazorat turidir. Test sinovlarining nazariy asoslarini keyinchalik esa ingliz psixologi F.Gamelson ishlab chiqadi. XX asr boshlariga kelib, test sinovlarini ishlab chiqishda psixologik va pedagogik yo'nalishlar bir-biridan mustaqil ajrala boshlaydi. Ta'lim jarayonidagi pedagogik test sinovlari birinchi marta amerikalik psixolog E.Torndayk tomonidan yaratilgan.

Ayni paytda ta'lim muassasalaridagi reyting nazoratida test ham samarali qo'llaniladi. **Test** deganda - aniq vazifani takomillashganlik darajasini aniqlashda, uning sifat va miqdoriy o'lchamlarda belgilanish imkonini beradigan, faollikning biror shaklini qiziqituvchi tanlangan sohaga aloqador aniq topshiriq shaklidagi sinov quroli tushuniladi. Albatta, o'quv pedagogik ishlab chiqarish va bitiruv oldi malakaviy amaliyotlari davrida olingan bilimlar ham reyting ballari bilan baholanadi. Ta'lim natijalarini baholashda reyting tizimining test usuli keyingi paytlarda iste'molda juda keng foydalanib kelinmoqda.

Test — biror bir faoliyatni bajarish uchun ma'lum darajadagi bilimni egallashga qaratilgan topshiriqlardir desak ham bo'ladi. Test natijalarini aniqlash davomida uning to'g'ri bajarilganligini o'lchash va baholash maqsadida har bir testga ekspert metodi yordamida etalon ishlab chiqiladi. Umuman olganda, test so'zi inglizchadan olingan bo'lib, sinov, tekshirish, tadqiqot ma'nolarini bildiradi, ya'ni «sinalayotgan shaxsning psixo-xususiyatlarini, shuningdek, intellektual rivoji, qobiliyati va malakasini tekshirishda qo'llaniladigan standart mashqlar», demakdir. Pedagogik va uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish natijasida didaktik testlar quyidagi ikki guruhga ajratiladi:

1. Nazariy bilimlarni nazorat qiluvchi, malaka va qobiliyatlarni tekshiruvchi o'zlashtirish testlari;
2. Real o'quv imkoniyatlari bo'yicha (Yu.Babanskiy) diagnostika testlari hamda umumiy va maxsus (masalan, mikro yoki makro iqtisodiyot fani va boshqa fanlar bo'yicha) o'qitish testlari.

Test sinovlarining asosiy maqsadi - o'tilgan darslarni o'zlashtirish darajasi to'g'risida, hamda keying navbatda o'rganilishi lozim bo'lgan dars hajmi to'g'risida o'qituvchiga axborot berish, shuningdek, o'qituvchiga o'qitish uslubini aniq tanlashda yordam berishdan iborat deb hisoblanadi.

Testning afzalligini quyidagicha baholashimiz mumkin:

- nazorat uchun kam vaqt sarflanadi;
- nazariy va amaliy bilimlar darajasini obyektiv sharoitda aniqlash imkoniyatini beradi;
- ko'p sonli talabalar bilan bir vaqtning o'zida nazorat olib borish mumkin;
- bilim natijalari o'qituvchi tomonidan tezkorlik bilan tekshiriladi;
- barcha talabalarga bir xil qiyinchilikdagi savollar berilib bir xil sharoitlar yaratiladi;

Testlarning fanlararo qo'llanish sohasi - oraliq nazorat testlarida mavzular, boblar bo'yicha bilim va o'zlashtirish elementlarini tekshirish, boshqa ko'plab mavzular bo'yicha fanlarning bir-biriga bog'liqligini hisobga olgan holda bilim va o'zlashtirishning chegaraviy nazoratini hisobga olish, butun kurs bo'yicha bilimlarni nazorat qilish (test asosida fanlararo turkum testlarni ham yaratish mumkin). Bu holatlarning har birida fan topshiriqlarining savollari quyidagicha har xil qo'yiladi: marketing-moliya, menejment yoki soliqlar kabi integrativ bilimlar va hokazo bo'lishi mumkin.

Me'yoriy test tuzishning umumiy yo'nalishi bo'yicha maqsadli yoki kriterial (mezonli) xarakterdagi testlar orqali yig'ilgan ballarning hisob natijalariga ko'ra tekshiruvchi bir guruhni boshqa guruh bilan, guruh ichidagilarni esa o'zaro bir-biri bilan solishtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Mezonli testlarda esa har bir ta'lim oluvchining qandaydir o'quv yoki mutaxassislikka oid topshiriqlarini yechish uchun zarur bo'ladigan bilim va o'zlashtirish qobiliyatlari ochib beriladi, ya'ni mezonli testlar va unga mos topshiriqlar ta'lim oluvchilarning bilim va ko'nikmalari aniq fan sohalari bo'yicha o'qitish maqsadining minimal talablariga qay darajada erishgani yoki erishmaganligi haqidagi savollarga javob beradi.

Me'yoriy testlarning kamchiligi - ta'lim oluvchi keyingi bosqichga o'tish uchun qay darajada tayyor ekanligini belgilab bera olmasligida ko'zga tashlanadi.

Mezonlarga ko'ra testdan o'tkazish esa o'z navbatida natijalarning o'zgarish ekanligi, qolaversa, natijalar doimiy standartlar bilan solishtirilishi bilan farq qiladi. Masalan, haydovchilik guvohnomasini berish uchun talabgorning bilimi mavjud standart bilan solishtirilishi kerak. Chunki, uni boshqa soha xodimining qobiliyatlari bilan solishtirib bo'lmaydi.

Standartlashtirilgan testlar - ma'lum standart talablar qo'yilgan dastur asosida tuzilib, ta'lim oluvchining o'z sohasiga muvofiq bo'lgan bilim, ko'nikma va malakasini aniqlashga mo'ljallanadi. Ushbu testlarning erishilgan darajani, qobiliyatlarni (qiziqishlarni ham) aniqlovchi, hamda tashxislovchi turlari ham mavjud.

Erishilgan darajani aniqlovchi testlar - ta'lim oluvchi ma'lum sohada o'zlashtirgan bilimlar miqdorini o'lchaydigan, standartlashtirilgan testlardir. Bu kabi testlarni butun guruhga yoki individual ravishda ishlatish, natijalarni hisoblashda turlicha ball tizimidan foydalanish mumkin.

Tashxislovchi testlar - ta'limdagi muammolarni belgilab olish uchun individual ravishda qo'llaniladi. Testlarning didaktik-psixologik yo'nalishi bajaruvchi shaxsning qanday test ishlab chiqilayotganligi yoki adaptatsiyasidan o'tayotgan testni uning muallifi qanday xarakterlashini aniqlaydi:

- nazariy bilimlarni nazorat qilish uchun o'zlashtirish testlari;
- berilgan fan (o'quv va mutaxassislik) bo'yicha bilim va malakalarni nazorat qilish testlari;
- o'qitish testlari (ma'lum fan yoki uning sikli bo'yicha o'quv

imkoniyatlarning diagnostikasi).

Qo'shimcha sifatida quyidagi ma'lumotlarni ham keltirib o'tishni joiz deb o'ylaymiz. **Ochiq topshiriqlar.** Agar test topshirig'i matnida, uning tayanch so'zlari yoki gap tushirib qoldirilgan bo'lsa, bunday topshiriq ochiq (tugallanmagan) test deb ataladi.

Yopiq topshiriqlar. Bunday topshiriq savoldan va bir necha javoblardan iborat bo'ladi, bu javoblardan biri to'g'ri, qolganlari to'g'riga o'xshash, biroq noto'g'ri bo'ladi. Agar testlarni turkumlashda ularning qo'llash maqsadi va vazifalariga asoslanadigan bo'lsak, psixologik testlardan boshqa barcha testlarni quyidagi uch guruhga ajratish mumkin:

- intellektual rivojlanish darajasini aniqlovchi testlar;
- pedagogik testlar;
- muayyan kasbga yaroqlilikni aniqlovchi testlar;

Testlashtirishning diagnostik (tashxislanganlik) darajasi bo'yicha berilgan testdan ko'zlangan maqsad: simptomatik diagnostikaga, ya'ni bilim va o'zlashtirishning «yuqori qatlamlariga» qaratilishi (ya'ni, ma'lum qonuniyat yoki formulalarni bilish - bilmasligi yoki tanish-notanishligi va boshqalar), etiologiya - diagnostikaga, tekshiruv-aloqa sababi (nima uchun aynan o'sha bilimlarni bilmasligi va buning qay darajada boshqa bilimlarni bilishga bog'liqligi)ga qaratilishi, tipologiya - diagnostikada esa ta'lim oluvchining o'tilayotgan dars va bilimlarni bilishga, o'zlashtirish va uddalay olishida qanday g'oyalarni kuchaytirish kerakligiga qaratilgan bo'ladi.

Test topshiruvchining testni bajarish faolligini oshirish uchun yozma va og'zaki testlarga mos ravishda yozma va og'zaki javoblarni qo'llash kerak. Masalan, harakat testlarida, ayniqsa, kompyuter tugmachalarini

bosishdan tortib, dasturlar yoki qism dasturlarni chiqarishgacha, hamda hisoblash ishlarini o'tkazish va grafiklarni chizish, loyihalashtirish kabilarda.

Testning gomogenlik darajasi (bir jinslik) testni tuzuvchi muallif tomonidan rejalashtirilgan bo'ladi. Shu jumladan:

a) ko'zlangan maqsadga qarab testning nimani tekshirish kerakligi, ayniqsa, integrativ xarakterdagi asosiy elementlar ichidan (masalan, ma'lum amallarning talab qilingan darajada yoki shu amallarni bajarishda sifat, miqdor, tezlik, ketma-ketlik, javobgarlik kabi bir qancha) asosiy omillarni hisobga olish;

b) shakllantirilgan testda topshiriqlar tuzilishi shaklining bir jinsligi (gomogenligi) yoki turli shaklda bo'lishligini belgilash.

Albatta yuqorida aytib o'tilgan sifatlarga tayanadigan bo'lsak, test jarayonida vaqt ham muhim o'rin egallaydi. **Vaqt omili** — testning tezkor bo'lishini, topshiriqlarning funksional ravishda ma'lum belgilangan vaqtda bajarish zarurligini, qaysi yo'l bilan va nimaga asoslanib vaqtning taqsimlash kerakligini belgilash uchun xizmat qiladi. Ayni jarayonda esa baholash vaqtining ham sarflanish chegarasi belgilangan bo'lishi lozimdir. Bu kabi qat'iy belgilangan vaqt – test jarayonining tez va oson kechishida muhimdir. Chunki, vaqt – tizimlilikni talab qiladi.

Testlashtirishni tashkil etish usullariga esa umumiy, individual yoki juda kam qo'llaniladigan, lekin juda samarali hisoblangan alohida usuli ham tekshiriluvchilarning tashxischi bilan yuzma-yuz, xolis (testlashtirishning EHM vositalaridagi individual dasturning zamonaviy varianti) turishi kabilar kiradi.

So'zimizga yakun yasayotganimiz, hozirgi global va tezkor zamonimizda insonning erishgan yutuqlarini xolis baholash uchun testlashtirishdan ommaviy suratda foydalanish an'anaga aylanib ulgurdi. Shu bois ham iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda test sanoati va testlar bozorining vujudga kelishida ushbu talablar asos bo'ldi. Umumiy qilib aytganda ta'lim tizimidagi ma'lum bir nazorat boshqichlarini testlashtirish hozirgi kunda davr talabi desak adashmagan bo'lamiz. Sababi shundaki, test bu tizimlilikni, shartlilikni, jadallikni hamda umumiylikni o'zida aks ettirgan sinov turidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Umumiy o'rta ta'lim muassasa(maktab)larida o'quvchilar bilimni nazorat qilishning reyting tizimi to'g'risida muvaqqat Nizom. // «Xalq ta'limi», 2000 , 4-son. 10-24- betlar.
2. Farberman B., Musina R., Jumaboyeva F. Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning zamonaviy usullari. -T., 2002.
3. Belova S.N., Shamova T.I., Ilyina I.V. Maktab ta'limi natijalarini baholashning zamonaviy vositalari. - M .: Rossiya Pedagogika Jamiyati, 2007.
4. Tursunov I. Y., Nishonaliyev U. Pedagogika kursi.T.: «O'qituvchi», 1997..
5. <http://fayllar.org>
6. <https://hozir.org>